



## 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi

**1100,7** mlrd. soʻm

Yirik qurilish  
tashkilotlari ulushi

**4,0** %

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi

**79,7** %

Norasmiy sektor ulushi

**16,3** %

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida Sirdaryo viloyatida jami **1100,7** mlrd. soʻm **qurilish ishlari** bajarilgan boʻlib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **124,6** % ni tashkil qildi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **43,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **163,4** % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **876,9** mlrd. soʻmni yoki jami qurilish ishlarining **79,7** % ini tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **120,9** % ni tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **180,1** mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati **136,1** % ni tashkil qildi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi-43,7 mlrd. soʻm

oʻsish surʼati-163,4 %

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi-876,9 mlrd. soʻm


oʻsish surʼati-120,9 %

### Norasmiy sektor

hajmi-180,1 mlrd. soʻm

oʻsish surʼati-136,1 %

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 72,8 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % bandga ko'paydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 17,0 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % bandga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 10,2 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % ga kamaydi.




**Qurilish ishlarining faoliyat turlari  
bo'yicha tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)



2019-yil  
yanvar-sentyabr

- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




2018-yil  
yanvar-sentyabr

**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlar tarkibi**  
(mlrd. so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik pudrat tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1100,7</b>	<b>43,7</b>	<b>876,9</b>	<b>180,1</b>
<i>shaharlar</i>				
Guliston	340,7	9,6	283,4	47,7
Shirin	58,4	1,0	55,0	2,4
Yangiyer	98,3	3,0	83,0	12,3
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	89,7	0,3	73,2	16,2
Guliston	50,6	-	41,1	9,5
Mirzaobod	101,5	5,5	82,7	13,3
Oqoltin	80,0	6,4	64,2	9,4
Sardoba	24,4	-	13,5	10,9
Sayxunobod	47,7	1,0	37,4	9,3
Sirdaryo	140,8	0,1	100,5	40,2
Xovos	68,6	16,8	42,9	8,9

## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 118,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 135,3 %, Mirzaobod tumanida 129,2 %, Yangiyer shahrida 126,1 %, Boyovut tumanida 126,2 % va Oqoltin tumanida 132,4 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Xovos tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 142,3 % ni tashkil qildi.



## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



✦ **Yirik qurilish tashkilotlari** ✦ **Kichik korxonalar va mikrofirmalar** ✦ **Norasmiy sektor**

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 79,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,9 % ni tashkil qildi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlaridagi ulushi 4,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 163,4 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 16,3 % tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 136,1 % ni tashkil qildi.




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)

2018-yil yanvar-sentyabr



2019-yil yanvar-sentyabr



 Davlat mulkchilik shakli


 Nodavlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 74,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,8 % ni tashkil qildi va 2018-yil yanvar-sentyabriga nisbatan 1,7 % bandga koʻpaydi.



Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 1025,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,2 % ni (2018-yil yanvar-sentyabriga nisbatan 1,7 % bandga kamayish) tashkil qildi.

## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 31,0 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 12,8 %, Mirzaobod tumanida 9,2 % ga, Yangiyer shahriga 8,9 % va Boyovut tumaniga 8,2 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi.

Aloqa telefoni:(67) 225-02-37  
(71) 230-86-27